SHARQ ALLOMASI DARVESH ALI CHANGIY IJODI

Vasiov Mansurbek Egamberganovich,
Yunus Rajabiy nomidagi
O‘zbek milliy musiqa san’ati instituti
“Maqom xonandaligi” kafedrasi katta o’qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Markaziy Osiyoda musiqa san’atining yirik namoyandalaridan biri bastakor, sozanda, hofiz va musiqashunos Darvesh Ali Changiy haqida bayon etilgan. Darvesh Ali Changiyning hayoti va ijodi, yozgan asarlari maqom, musiqa asboblari, ritm va bastakorlik san’ati tahlil qilingan. Darvesh Ali Changiy ijodida chang cholg‘usining rivoji va maqom ijrochiligining ilmiy tahlili alohida o‘rin egallaydi. U Markaziy Osiyo madaniyatiga chuqur ta’sir ko‘rsatgan musiqiy meros yaratib, zamonaviy musiqashunoslar uchun ham muhim manba hisoblanadi.*

Аннотация: *В этой статье рассказывается об одном из крупнейших деятелей музыкального искусства Средней Азии композиторе, Созидателе, Хафизе и музыковеде дервише Али Чанги. Были проанализированы жизнь и творчество дервиша Али Чанги, его сочинения статус, музыкальные инструменты, ритм и композиторское искусство. Особое место в творчестве дервеша Али Чанги занимает научный анализ развития инструмента Чанг и исполнения макама. Он также является важным ресурсом для современных музыковедов, создавая музыкальное наследие, которое оказало глубокое влияние на культуру Центральной Азии.*

Abstract: *This article describes the composer, lyricist, hofiz and musicologist Darwesh Ali Changi, one of the major exponents of musical art in Central Asia. The life and work of Darvesh Ali Changi, the works written by Maqam, musical instruments, rhythm and the art of composing were analyzed. A special place in the work of Darvesh Ali Changi is the development of the chang instrument and the scientific analysis of status performance. He is also an important source for contemporary musicologists, creating a musical legacy that has deeply influenced Central Asian culture.*

Kallit so‘zlar: *Darvesh Ali Changiy, Musiqa nazariyasi, Maqomot ilmi, Musiqiy risola, Movarounnahr madaniyati, Imomqulixon davri, Diniy va dunyoviy qarashlar, Musiqa va xurofot, Parda va usul, Musiqiy sharofat, Markaziy Osiyo musiqasi, San’at va madaniyat, Temuriylar merosi, Musiqiy ta’limot, Musiqashunoslik*

Buxoroda yashab ijod etgan bu ulug‘ musiqashunos, san’atkor hayotining so’nggi yillari Imomqulixon zamoniga to‘g‘ri keladi. Uning oxirgi yirik musiqiy


risolasi aynan shu Imomqulixonga bag‘ishlangan. Ma’lumki, mazkur davr Movarounnahr tarixida ijtimoiy-siyosiy vaziyat o‘zgarib, ko‘proq diniy xurofotga yuz tutilgan payt edi. Madaniy-ma’rifiy sohada ham Temuriylar saltanatida oliy maqomda bo‘lgan va buyuk cho‘qqilarga erishgan nafis san’atlarga e’tibor kamaya boshladi. Shuning uchun Darvesh Alining musiqiy ta’limoti, davr taqozosiga ko‘ra, Kavkabiy tafakkuridan boshqacharoq ehtiyojlarga qaratilganligi bilan xususiyatlanadi.


Bundan tashqari, badiiy ilmlar sohasida mukammal tarbiya topgan, she’riyat va musiqiy san’atlarga o‘ta ishqivoz bo‘lgan Ubaydulloxondan farqli ravishda Imomqulixon nafis san’atlarga uncha iltifotli bo‘lmagan. Shu sababdan, allomai zamon Darvesh Ali Changiy musiqa borasida ilmiy-nazariy qarashlar bilan bir qatorda bu fanning sharofati haqida hadisu hikmatlar keltirish va zamondoshlar ongiga singib ketgan aqidalarga muvofiq rivoyat va afsonalarga tayanib fikr yuritishga majbur edi.

Qanday bo‘lmasin, Darvesh Ali mohiyatan Temuriylar davrida yuzaga kelgan ulkan madaniy-ma’rifiy maktabning merosxo‘ri. U badiyat ilmi, xususan, musiqaning nazariy va amaliy asoslarining puxta bilimdoni, hofizi Qur’on, mohir cholg’uchi va go‘yanda, xoslar davrasida e’tibor topgan ustoz. Mavlono Darvesh Ali o’z oldida turgan murakkab ilmiy vazifani yuqori saviyada ado etishga muyassar bo’ldi. Uning risolasi o’z davri va hududining oliy darajadagi musiqiy qomusi bo‘lib xizmat qiladi. Uning sahifalaridan O’rta Osiyo xalqlari musiqiy madaniyatining uzoq tarixi hamda ildizlari oldingi va samarasi keyingi zamonlarda yuzaga kelgan ilmiy qarashlarga tutashib ketgan nodir ma’lumotlarni topish mumkin.

Darvesh Ali merosini atroflicha mutolaa qilish alohida ilmiy mavzu. Biz hozirlayotgan tadqiqot nuqtai nazaridan Darvesh Ali risolasi, birinchi navbatda, maqomot ilmiga taalluqli taraflari bilan e’tiborlidir. Unda bayon etilgan mavzuga oid diniy va dunyoviy mushohadalar, ilmiy-nazariy qarashlar, hayot tajribasida pishib odat tarziga aylangan mutaorif bilim va tushunchalar, avloddan avlodga o‘tib kelayotgan rivoyatlar, ko‘hna dunyodan meros qolgan afsonalar maqomot asoslari hamda uning uzoq va yaqin tarixini idroklashda muhim manbalar bo‘lib xizmat qiladi.

Musiqiyning sharofatini dalillash maqsadida hadislarga murojaat etilishi va musiqiydek murakkab, mavhum va ayni chog ‘da hayotbaxsh masalada diniy va dunyoviy ilmlarni muvofiqlashning o‘zi Darvesh Alini yirik mutafakkir sifatida e’tirof etishga loyiq. Bevosita musiqaning ilmiy asoslari, xususan, parda (maqom) va usul masalalarini yoritishda diniy va dunyoviy qarashlar ila muvofiq bayon qilganligi Darvesh Ali risolasini mintaqa musiqa tarixidagi shoh asarlardan biri deb qarashga imkon beradi.






Darvesh Ali risolasida riyoziy va tabiiy ilmlardan ko‘ra, an’anaviy yo‘l-yo‘riqlar ko‘proq o‘rin oladi. Uning birinchi bobida samo’ va dafga oid hadislar, ikkinchi bobida ilmi musiqiyning kuy(alhon) va vazn(iyqo‘) asoslari bayon etilgandan so‘ng, uchinchi bobida to‘g‘ridan-to‘g‘ri asl maqomlar va ularning tarmoqlari (sho‘ba, ovoz va ranglar)ning yuzaga kelishiga oid urf-odatlar bayon etiladi. Mazkur bob: «Bilginki, Xoja Abdulqodir ibn Abdurahmon Marog‘iy, Xoja Safiuddin ibn Abdumo‘min va Sulton Uvays Jaloyirlar ta’kidlashicha, avval 7 payg’ambardan 7 maqom va Bobo Umardan qolgan yana bittasi bo‘lgan» – degan jumla bilan boshlanadi. So‘ngra har bir maqomni ulug‘larga nisbat qilinishiga oid mufassal rivoyatlar keltiriladi: Rost – Odam Ota bilan Momo Havvo hijron nidolari; Ushshoq – Nuh nolasi, Navo – Dovud hasrati; Hijoz – Sulaymonning shodlik kuylari; Iroq – Ayyubning mubtalolik sadolari; Husayniy – Yoqub firoqi; Rahoviy – Qur’oni Karim nozil bo’lganda Muhammad (s.a.v.) tilovat qilgan ohanglar, Busalik – Bobo Umar tuya yetaklaganda aytadigan kuy.

Undan keyin yana Xoja Abdulqodirdan rivoyat qilinib, u o‘zining botin idroki va fahmi zohiri ila mazkur 8 maqomga yana to‘rttasini Isfahon, Buzruk, Kuchak va Husayniylarni qo‘shganligi bayon etiladi. Maqomlarning yuzaga kelishi masalasi munosabati bilan Darvesh Ali Mavlono Kavkabiy nomidan ilmi-advor ta’limotining muhim va chigal nuqtalardan birini tushuntiradi. U ham bo‘lsa, butun maqomot tizimining tadrijiy rivojlanishida asl parda va sho’balarning nomlari, tartibi va ularning ma’no-mazmuni bilan to’ldirilishi turlicha bo’lganligining e’tirof etilishidir. Bu urf-odatni inobatga olish maqomlar tarixi hayot ehtiyojlariga qarab o’zgarib boradigan jarayon ekanligini idroklashda juda muhim ahamiyatga ega.

Mazkur tamoyildan maqomlarning nafaqat nom-nishonalari, balki ular atrofida yuzaga keladigan fikr-mulohazalar ham doimiy almashib turadi, degan xulosa kelib chiqadi. Xususan, bu mavzuda Darvesh Ali Aflotun zamonlarida taraqqiy topgan fazoviy (kosmologik) qarashlarga ko’ra 12 maqom falak burjlari: Rost-Hamal, Isfahon-Savr, Iroq-Javzo, Kuchak-Saraton, Buzruk-Asad, Hijoz-Sumbula, Busalik-Mezon, Ushshoq-Aqrab, Navo-Qavs, Husayniy-Jadiy, Zangula-Dalv, Rahoviy-Hutdan taralganligini qayd etadi.

Shu bilan barobar 12 maqom Hazrati Muso hassasini toshga urganda paydo bo'lgan 12 buloqdan chiqqan ovozlardan iboratligi haqidagi mashhur afsona ham tilga olinadi.

Undan keyin yana hayotiy voqealarga qaytib, ustozlar o'z bilim va mahoratlarini ishga solib, har bir maqomning yuqori va pastki bo'lagini ajratib ikki sho'ba, ikki maqomni qo'shilishidan bir ovoz va ikki ovozni birlashtirib bir rang qilganliklari tushuntiriladi.

Mutaorifiy ilmlar izchil tizim ekanligini isbotlovchi yana bir dalil shundan iboratki, Darvesh Ali risolasida barqaror odat tusini olgan maqom atamalari bilan bir qatorda, amaliyotga tatbiq qilinmagan Qayri mutaorifiy (ya'ni, urf etilmagan)lari ham mavjudligi e'tirof etiladi. Faqat Husayniyni-Zerkash, Kuchakni-Zarafkand, Iroqni-Qavro, Zangulani-Nahovand, Rostni-Ummul advor, Hijozni-Nigoriy, Busalikni-Chakoviy, Navoni-Nag'mai Dovudiy, Ushshoqni-Tarona, Buzrukni-Avj deyilganligi tilga olinadi. Ushbu nuqtai nazardan iyqo' masalalariga bag'ishlangan 4-bobni «Mutaorif 17 usul bahri va 24 Qayri mutaorif usul ma'rifati haqida» – deb nomlanishining o'zi alohida diqqatga sazovor. Mazkur bob – «Bilginki, 12 usul qadimiydir» – deb boshlanadi. Bundagi «qadim» atamasi «sara», «mumtoz» ma'nosini anglatadi. Ya'ni, tajribada pishib yetilgan, ajdodlar tomonidan e'zozlangan mo''tabar usullar demakdir.

Darvesh Ali risolasining boshqa bir qiziqarli jihati, mumtoz usullarning jonzotlar harakati bilan bog'liq ekanligi haqidagi naqllarning misol keltirilishi. Jumladan, «zarbul qadim» deb nomlanadigan ibtidoiy usul yurak tomirlarining urishidan olinganligi to'g'risidagi mulohaza-musiqa ahli orasida juda keng tarqalgan. Duyak usuli xo'roz ovozidan, Foxitiy-yovvoyi kabutar, Saqil-to'ti, Ramal jul(tovus) qushi navosidan, Gaxvogiy-gudak sadosidan, Bulujiy-misgarlar damining tovushidan kelib chiqqanligi to'g'risidagi chiroyli gaplar ham muxlis va shinavandalar orasida maroq bilan hangoma qilingan.

Qancha rivoyat va afsonalar pesh qilinmasin, urf etilgan usullar aslida ilmi musiqiyni o'ziga yaqin tutgan ulamolar ijodiga mansubligi jiddiy qayd etiladi.

Ammo mumtoz musiqa negizidagi usullar advor ta'limotining peshvolari tomonidan ushbu fanning ilmiy-nazariy tamoyillari asosida ishlanganligi va bu sohada Xoja Abdulqodir «saromadi advor» martabasini egallaganligi alohida ta'kidlanadi. Sarlavhada ko'rsatilgan 17 mutaorif usul aynan shu Xoja Abdulqodir merosi va qolgan 24 g'ayri mutaorif usullar boshqa ustozlar tomonidan yaratilganligini Darvesh Ali ko'rsatib o'tadi.

Nihoyat, Darvesh Alining musiqiy risolasi ilmi nazariy yo'nalishdagi Kavkabiy asaridan farqli ravishda mutaorifiy ilmlarga qaratilganligining yana bir isboti shundaki, mazkur bobda oldin amaliy bilimlar sarhisob etilgan 17 usul mundarijasi keltirilgandan so'ng, nazariy tushuncha (niqra, zarb, bo'g'in, bahr)lar qo'shimcha o'rnida beriladi.

Bu bo’lak foyda (ya’ni «qo’shimcha») deb nomlanadigan alohida sarlavha bilan ajratiladi.

Musiqaning shakl tuzilishi (tasnifot)ga doir 5-bob ham yuqorida zikr etilgan mutaorifiy tartibdan kelib chiqadi. Ya’ni, oldin ilmi musiqiyda urf etilgan navlarning ta’rifu-tavsiflari beriladi. Keyin, ularning tarixi va nazariy asoslariga doir masalalarga to‘xtalib o’tiladi. Darvesh Ali bayonidagi tasnifotlarning barchasi Marog’iy va Kavkabiy asarlarida mavjud navlardan iborat bo‘lsa-da, lekin ularning orasida navba va navbati murattab atamalari negadir uchramaydi?!

Bu savol turlicha mulohazalar uyg‘otadi. Biz esa risola yaratilgan paytda Darvesh Ali umrining oxirgi yillari ilmi advor ta’limoti inqirozga uchrab, navba va navbati murattab navlari amaliyotdan chetlashib, ularning o‘rnini mutaorifiy kulliyot va keyinchalik, Shashmaqom majmualari egallaganligi ehtimoldan xoli emas, degan g’oyani olg’a surish bilan cheklanamiz.

Tasnifot masalalarida Darvesh Ali salaflari Marog‘iy va Kavkabiylarga payravlik qilsa-da, ayrim holatlarda juda muhim nuqtalarni uqtirib o‘tgan. Ana shunday e’tiborli mavzulardan biri peshrav shakli va uning xonalarining ichki tuzilishiga oid fikrlar. Marog‘iy va Kavkabiy peshravni amal navining cholg‘u shakli sifatidagi ko‘rinishi, deb ta’riflaydi. Darvesh Ali ham peshravni xuddi shunday tushuntiradi. Lekin, ichki tuzilishiga kelganda, Marog‘iy va Kavkabiy ta’riflarida uchramaydigan narsalarni tilga oladiki, ular eski tasnifot ta’limoti hamda bugungi maqom amaliyotidagi kuy va ashulalarning tuzilish nizomlarini tushunish uchun nihoyatda muhim.

«Peshrav – deb yozadi Darvesh Ali – amal qoidasi bo‘yicha tuziladi. U uch sarxonadan iborat va bebaytiy deyiladi. Avvalgi sarxona pastda joylashsa, miyonxona undan balandda bo‘lmog‘i lozim. Ammo rang (muayyan parda birligining o‘zgargan shakli) bo‘lgani yaxshiroq. Birinchi sarxona uch qismdan iborat. Avvalgi qism tarkib, ikkinchi qismi oviza, uchinchi qism lozima deyiladi. Oviza bir tarkibni boshqa tarkibga qo‘shib beradi. Lozima hamisha sarxona va miyonxonada bozgo‘yga hamroh bo‘lib keladi. Har narsaki sarxonaning boshlanishida voqe’ bo‘lsa, uni tarkib deydilar. Undan keyingisi oviza va undan ortib qolgani lozima deyiladi. Lozima ko‘p bo‘lgani yaxshi emas» .

Risolaning qolgan boblari cholg‘u sozlari, musiqiyga ixlosmand podsholar, ulamo va fuzalolar, mukammal bilimlar sohibi bo‘lgan musannif va mualliflar, sozandalar odobi, podshohu sohibqiron majlislariga iltifot qilingan xush ilhon hofizlar, Darvesh Alidan oldin o‘tgan va unga zamondosh bo‘lgan ustozlar hayotiga bag‘ishlanadi. Bu masalalar keyingi yaratiladigan tadqiqotlar uchun ilmiy mavzu bo‘lsa ajab emas.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Darvesh Ali Changiy. Risolai musiqiy. Qo'lyozma. O'zR FAShI. Inv. 468
2. Rajabov I. Maqomlar. – Toshkent: "SAN'AT" nashriyoti, 2006;
3. Rajabov I. Sharq musiqa atamalarining qisqacha lug'ati. – Toshkent: "Tamaddun" nashriyoti, 2023
4. O.Matyoqubov. Maqomot. Toshkent, 2004;
5. Matyoqubov Sh.B. An'anaviy xonandalik asoslari. – Toshkent: "Adast poligraf" nashriyoti, 2022.

